

KONSTITUSIYASIDA FUQAROLARNING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI: UNDA ISHTIROK ETUVCHI SUBYEKTLARNING VAZIFALARI

Turayev Sh.E.

**Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra katta o'qituvchisi**

Ergashev H.A.

**Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o'qituvchisi**

Annotatsiya: Tezisdan konstitusiyada fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, bu yo'nalishda Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalari vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konstitusiya, jamoat xavfsizligi, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, favqulodda holat, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va boshqalar.

Аннотация: В тезисе проанализированы задачи Национальной гвардии и подразделений Министерства по чрезвычайным ситуациям по обеспечению безопасности граждан в Конституции

Ключевые слова: конституция, общественная безопасность, личная безопасность граждан, чрезвычайное положение, Министерство по чрезвычайным ситуациям, Национальная гвардия и другие.

Annotation: The thesis analyzes the tasks of the National Guard and units of the Ministry of Emergency Situations to ensure the safety of citizens in the Constitution.

Key words: constitution, public safety, personal safety of citizens, state of emergency, Ministry of Emergency Situations, National Guard and others.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuv va bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilinib, joriy yilning 1-may sanasidan kuchga kirdi. Uning moddalari 128 tadan 155 taga ko'payib, normalari 275 tadan 434 taga, ya'ni 65 foizdan ko'proqqa oshdi.

Konstitusiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yilmoqda.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al

oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Konstitusiyaning 109-moddasi 19-bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Alohida hollarda (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi”[1] deb belgilab qo‘yilgan.

Favqulodda holat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu Konstitusiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo‘l qo‘yadigan hamda ularning zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O‘zbekiston Respublikasi [Konstitusiyasiga](#) muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi.[2]

Favqulodda holat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumiga va (yoki) hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo‘llamasdan bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi. Bunday holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- real tashqi xavf, O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini va (yoki) hududiy yaxlitligini zo‘rlilik bilan o‘zgartirishga urinishlar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, shuningdek zo‘ravonlik harakatlari bilan bir vaqtda yuz beradigan, fuqarolarning hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning kundalik faoliyatiga bevosita tahdid soluvchi o‘ta muhim hamda toifalangan ob‘yektlarni yoki ayrim joylarni to‘shish yoki bosib olish, qonunga xilof qurolli tuzilmalarni tayyorlash (tashkil etish) va ularning faoliyati, millatlararo, konfessiyalarga ro va chegaraviy nizolar;
- keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, favqulodda ekologik vaziyatlar.[3]

Favqulodda holat rejimini ta‘minlovchi sub‘yektlarga quyidagilar kiradi:

- Ichki ishlar vazirligi;
- Milliy gvardiya;
- Davlat xavfsizlik xizmati;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish davlat tizimiga kiruvchi boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda tegishli vazirliklar jamoat tartibini, o‘ta muhim va toifalangan ob‘yektlarni hamda aholining hayot faoliyatini va transportning harakatlanishini ta‘minlovchi ob‘yektlarni muhofaza qilishni kuchaytirish vazifalarini amalga oshiradi. Fuqarolar o‘z fuqarolik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, kiritilgan cheklovlar va favqulodda choralarga bo‘ysunishi talab etiladi.

Bunda asosiy ko‘zlangan maqsad, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini hamda O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi va hududiy yaxlitligi himoya qilinishini ta‘minlash, shuningdek favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi T-2023. // Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida” konstitusiyaviy qonuni 2021-yil 15-dekabr, O‘RQ-737-son. // Lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-areldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 171-son qarori.